



Taqiqot.uz



АНДУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
ДЕКАБР
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
25-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-25**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-25**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. To'xtayeva Gulmira Umar qizi, Yodgorova Xadichabibi Uroqovna OROL MUAMMOSI – GLOBAL MUAMMO	7
2. Amanbayev Sardorbek To‘raboy o‘g‘li, Yusupova Dildora Ilhomovna, Allaberganova Nafosat Zaripboyevna GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHINING JAHON HAMJAMIYATI VA O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI	9
3. Karimova Laylo Alisher qizi, Quryazova Shoira Bahromovna GEOGRAFIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	11
4. Rahimova Bibimaryam Karimovna GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI	13



ГЕОГРАФИЯ

OROL MUAMMOSI – GLOBAL MUAMMO

To'xtayeva Gulmira Umar qizi

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
2-umumi o'rta ta'lif maktabining
geografiya fani o'qituvchisi
+998944803094

Yodgorova Xadichabibi Uroqovna

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
2-umumi o'rta ta'lif maktabining
geografiya fani o'qituvchisi
+99893612006

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Orol” dengizi, uning fojiasi, global muammoni bartaraf etish chora-tadbirlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: “Orol” dengizi, global muammo, sath, o'zan, komponent, antropogen, akvatoriya maydoni, “o'lik dengiz”.

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishi turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, gedrosfera va litosfera ifloslanmoqda.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan. “Orol muammosi” vujudga keldi. Bu haqida quyidagi ma'lumotlar fikrimizni isbotlaydi. Oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli “o'lik” dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln gettarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qumtuzli aerozonalarini tarqatish manbaiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 80 dan 100 mln tonnagacha chang ko'tariladi. Shu bilan bir vaqtida, Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho'llashish sur'atlari o'sib bormoqda.

Orol va Orolbo'yini muammosini yechishdagi uchta asosoiy yo'nalishlar ya'ni, birinchidan, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitар-epidemologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e'tibor qaratildi. Sog'liqni saqlash va sanitariya xizmati darajasini keskin yuqoriga ko'tarish zarurligi uqtirildi; ikkinchidan, dengizning qurigan janubiy qirg'oqlarida sun'iy damba qurib, delta eksosistemasi ni doimiy suvlashtirish yo'li bilan “Yashil kamar” hosil qilish; uchinchidan, dengizni o'zini saqlash. Uni saqlash uchun unga sistematik ravishda ko'p miqdorda suv yuborib turish kerakligi va bundan tashqari Orolni qurigan tubida saksovulzorlar barpo etish natijasida qum ko'chishi, chang ko'tarilishini oldini olinishi mutaxassislar tomonidan ta'kidlandi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirishnafaqat tabiatni muhofaza qilish organlari ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo'lgan farzandlik burchidir.

Orol dengizining qisqarishi natijasida mahalliy aholi saomatligi bilan bo'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Orol dengizi hududining ko'p qismi zarar ko'rganligining asosiy sabablaridan biri “suvdan noto'g'ri foydalanish” edi. Orol dengizi mintaqasidagi o'zgarishlar natijasida inson



salomatligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ekologik ta'sirlarga “suv sathining so'rланishi, atrof-muhit va oziq-ovqat zanjiridagi restitsidlar, chang bo'ronlari va havo sifatidagi o'zgarishlar” misol bo'ladi. Mintaqada havoga ko'tarilgan tuz miqtorining ko'pligi turli kasalliklarning o'lka bo'ylab keng yoyilishiga sabab bo'lmoqda, Xususan, birgina Turkistonda bolalarda qayd etilgan barcha kasalliklarning 50 foizi nafas olish tizimidagi muammolar bilan bog'liq. Ushbu holatning ta'siri juda keng tarqalgan va turli kasalliklarga chalingan adamlarga ta'sir ko'rsatadi. Quyida Orol dengizi hududida o'limga olib keluvchi kasalliklar ro'yxati keltirilgfan:

1. Deariya kasalliklari
2. Ozuqaviy yetishmovchiliklar
3. Yuqori nafas yo'llarining infeksiyalanishi
4. Teratogenet
5. Endokrin buzilish
6. Gastroenterit
7. Tif isitmasi
8. Gepatit
9. Qizilo'ngach saratoni
10. Gipertoniya

Global muammoga aylangan “Orol fojiasi”dan ozod bo'lishda barchamiz birdek harakat qilmog'imiz, bir maqsad sari birlashmog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D. To'xtayev “Orol dengizi”
2. V. Norov “Orol dengizi atroflari”
3. G. Abdullayeva “Quyi Amudaryoga nazar”



**GLOBAL IQLIM O’ZGARISHINING JAHON HAMJAMIYATI VA O’ZBEKISTONGA
TA’SIRI**

Amanbayev Sardorbek To‘raboy o‘g‘li

Yusupova Dildora Ilhomovna

Allaberganova Nafosat Zaripboyevna

Xorazm viloyati Urganch shahar

18-son maktabning geografiya fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi eng dolzarb ekologik muammolardan biri global iqlim o’zgarishini keltirib chiqaruvchi omillar va uning oqibatlari, shuningdek, iqlim o’zgarishini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: iqlim o’zgarishi, atmosfera, atrof-muhit, ekologik muammo, global isish, resurs, ozon qatlami, karbonat angidrid, muzlik, ifloslanish.

Bugungi kunda atmosfera havosining ifloslanishi natijasida “iqlim o’zgarishlari”, “global isish”, “ekologik tanglik”, “issiqxona effekti”, “ozon tuynugi” singari bir qancha ekologik muammolarning ko‘lami keskin ortdi. Aslida, iqlim o’zgarishlari bir-ikki yilda yuzaga keladigan hodisa emas. Zotan, sayyoramiz tarixida uning tegrasidagi harorat muntazam ravishda o’zgarib kelgan. Bu jarayonlar ko‘plab jonivorlar yoki o’simliklarning yo‘qolib ketishi, o’zgacha hayot tarzi, yangicha tiriklik belgilari paydo bo`lishiga zamin yaratgan.

Jahon meteorologiya tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, ming yillar davomida uglerod tabiiy usulda biosfera, atmosfera va dunyo okeani bo`ylab bir xil me`yorda harakatlanib kelgan. Bu jarayon atmoferada karbonad angidrid va boshqa gazlarning havodagi miqdorini me`yorida tutib kelgan.

So‘nggi bir yarim asrda iqlim o’zgarishlariga inson omili katta rol o‘ynamoqda. Ishlab chiqarish shiddat bilan rivojlanib, atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli chiqindilar miqdorining ortishi, demografik o’sish, avtomobilarning ko‘payishi havoning o‘rtacha harorati ortishiga sabab bo‘lyapti. Iqlimni mo’tadil saqlashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rmonlar maydoni yildan yilga qisqarib bormoqda. Shunday davom etaversa, asrimiz oxirlariga borib, havoning o‘rtacha harorati +4 darajaga oshadi. Bu esa, Antarktida, Grenlandiya va Shimoliy qutbdagi katta miqdordagi asriy muzliklarning erib, okeanga qo’shilishi, dunyo okeani sathining ko‘tarilishi natijasida quruqlikdagi ko‘plab shaharlar, kichik orollarning suv ostida qolishi demakdir.

Dunyo bo'yicha yiliga atmosferaga milliardlab tonna turli xil kimyoviy modda va birikmalar chiqarilmoxda. Ular ichida atmosferani, ayniqsa, CO₂ gazi bilan ifloslanishi eng yuqori turadi. CO₂ gazi miqdorining atmosferada ortishi Yer sharida “issiqxona samarasi”ni kuchayishiga, inson organizmida O₂ yetishmovchiligiga sabab bo‘ladi. Bu esa asab va yurak qon-tomir tizimida turli kasalliklarning ko‘payishi, atmosfera gaz tarkibining o’zgarishi va Yer sharida ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Mutaxassislar faqatgina havoga uglerod gazlari chiqarish miqdorini qisqartirish orqali iqlim o’zgarishlarining oldini olish mumkin deyishmoqda. Shu sababli dunyodagi 200 dan ortiq korxona energiyadan qayta tiklanadigan manbalaridan foydalanish yo‘liga o’tmoqda. 18 ta transmilliy korporatsiyalar to‘liq elektromobillardan foylanishni rejalashtirgan.

O‘tgan asrning oxirlarida global isishning oldini olish dunyo hamjamiatini e’tiborini tortdi. 1992-yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida BMTning iqlim o’zgarishlari bo‘yicha doiraviy konvensiyasi qabul qilindi. 1997-yili Yaponiyada iqlim o’zgarishlariga olib keluvchi «parnik gaz»larini atmosferaga chiqarishni qisqartirish yuzasidan Kioto protokoli imzolandi. 2005- yil 16-fevraldan rasmiy kuchga kirgan protokolni dunyoning 156 davlati ratifikasiya qilgan. Shu bois, uglevodorodning o‘rnini bosuvchi, nisbatan arzon, atrof-muhit uchun xavfsiz resurslar, jumladan, quyosh, shamol, suv, atom va boshqa energiya manbalaridan foydalanish haqidagi takliflar ilgari surilmoqda.

Xo’sh, bizning O’zbekistonda ahvol qanday? Tabiiyki iqlim o’zgarishlari keyingi yarim asr ichida bizning mintaqaga ham sezilarli ta’sir o’tkazdi. Bir paytlar mavjlanib yotgan Orol dengizi maydoni o’nlab baravarga qisqarib, uning o’zani qaqroq sahroga aylandi. So‘nggi yillarda havo haroratining ko‘tarilishi natijasida Sirdaryo va Amudaryoni suv bilan ta’minlaydigan Pomir va Tyanshan muzliklari shiddat bilan erib bormoqda. Tojikiston hamda Qирғизистон vakillari ba’zi



muzliklar 20-30% eriganini aytishmoqda. Bir necha o'n yilliklar ichida esa bu muzliklarning yarmidan ko'pi erib bitishi mumkin. Mintaqamizda ichimlik suvining 80 foizi ana shu muzliklardan kelishini hisobga olsak, ularning erishi yaqin kelajakda suv tanqisligini keltirib chiqarishi mumkin.

Iqlim o`zgarishlarining noxush oqibatlariga qarshi kurashish maqsadida O`zbekiston hukumati tomonidan xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik faol yo`lga qo`yilgan. O`zbekiston yuqorida tilga olingan xalqaro shartnomaga va bitimlarga qo`shilgan. Jumladan, 2016-yil 19-aprel kuni O`zbekiston Parij bitimiga qo`shildi.

Biroq, bu masala faqat davlat idoralari, soha mutaxassislari zimmasidagi vazifa emas. Har bir inson global isish, iqlim o`zgarishlarining oldini olishga qo`lidan kelgancha hissa qo`shishi shart. Ishlab chiqarish korxonalarida asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, imkon qadar ekologik toza transport vositalari (velosiped, elektromobil) xizmatidan foydalanish, yirik shahalarimizda avtomobilsiz kunlarni joriy etish, ko`p miqdorda yoqilg'i sarflaydigan avtomashinalar uchun to`lovlarini oshirish singari choralar ham ma'lum ma`noda iqlim o`zgarishlarini cheklashga yordam berishi mumkin.

Hududlarda, ayniqsa shahar joylarida daraxtzorlarni yanada ko`paytirish, daraxtlarning asossiz kesilishiga, xazonlarni va kimyoviy chiqindilarni yoqishga yo`l qo`ymaslik kerak. Zotan, tabiiy boyliklarimizga ehtiyojkorona munosabatda bo`lsak, suv, gaz, elektr energiyasining ortiqcha sarfiga yo`l qo`ymasak, o`zimiz yashayotgan hudud, hovli yoki ko`chaning toza va ozodaligiga e`tibor qaratsak, ona tabiatni asrashga ozgina bo`lsada ulushimizni qo`shgan bo`lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Ismoilov. “Ekologik ta’lim-tarbiya”. T. O’qituvchi. 1997.
2. A.To’xtayev. “Ekologiya”. T. O’qituvchi. 1998.
3. T.Mirzayev, Z.G’oforov. “Tabiatni e’zozlash umumbashariy muammo”. T. Yangi asr avlod. 2001 yil
4. Maktabda geografiya. 2-son . 2014-yil.
5. Internet manba. Turfa olam.
6. www.tadqiqot.uz



GEOGRAFIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Karimova Laylo Alisher qizi

Gurlan tumani 26-sон мактаб о'qituvchisi

Telefon: +998 (93) 289 36 45

karimovalaylo_26@inbox.uz

Quryazova Shoira Bahromovna

Gurlan tumani 1-сон мактаб о'qituvchisi

Telefon: +998 (93) 747 03 88

shoira.bahromovna_88@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola geografiya darslarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish haqida.

Kalit so'zlar: Geografiya, interfaol o'yinlar, samaradorlik, o'qitish texnologiyalari, didaktik o'yinlar.

Bugungi kunda Respublikamiz umumiy o'rta talim maktablaridagi moddiy texnik va texnologik taminot rivojlangan mammakatlarni-kidan qolishmaydi endigi vazifa esa talim-tarbiya jarayonlarining mazmunan shakillantirish sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarishdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun hozirgi zamon pedagogi yuksak bilim va yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lmos'hing'i lozim. Pedagogik mahorat o'qituvchiga o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, o'qish izlanish, o'zaro uslub almashish, ustoz va rahbarlar o'giti, tarbiyasi namunasida vujudga keladi. Maktabga mahoratli o'qituvchilar guruhlarini shakllantirish ular ishlarni qo'llab-quvvatlash va ommallashtirishda asosiy mas'uliyat maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarlari zimmasiga tushadi. Shunday ekan zamonaviy rahbar o'z ish rejasini tuzish vaqtidayoq bunga alohida e'tibor bilan yondoshmog'i lozim. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtini tugatib kelayotgan yosh pedagoglar ilmiy salohiyati yetarli bo'lsada, tajriba va pedagogik mahorat va ayrimlarida kasbiy madaniyatning yetarli emasligi tufayli, darslarning samaradorligi past bo'lishiga olib keladi. "Dars – muqaddas" tavsiyalari asosida amalga oshirilgan ijobjiy ishlarni bilan birgalikda aniqlangan ba'zi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Geografiya ta'limida didaktik o'yinlar texnologiyasi o'quvchilarni bilim faoliyatini jadallashtirishni asosiy usullaridan biri sifatida ilgaridan qo'llanib kelinadi. O'quvchilarga geografik o'yinlar orqali bilim berish didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Geografik o'yinlarning asosiy xususiyatlari qo'yidagilardan iborat. Didaktik o'yinlar texnologiyasi tabiiy geografik bilimlarni o'rganishni va o'zlatirishni faollashtiradi. Mazkur didaktik o'yinlarni sinflar bo'yicha ham aniq bir mavzular bo'yicha ishlab chiqish mumkin, sinflar bo'yicha quyidagi predmetlar uchun ishlab chiqish mumkin.

Tabiiy geografiya darslarida qo'yidagi mavzular bo'yicha didaktik o'yinlarni ishlab chiqish mumkin:

– geografik tadqiqotlar tarixi.

Fanning rivojlanish tarixi, hududlarni va ayrim muammolarni o'rganish tarixi;

– plan va karta, shartli belgilari, andozalar, gorizontallar, geografik kordinatalar, masshtab va h.k.;

– litosfera: yerning ichki tuzilishi; yer po'sti; tog' jinslari; relyef va uning turlari, ayrim hududlar refeifi;

– gidrosfera va uning tarkibiy qismlari.

Dunyo okeani. Quruqlik suvlari, yer osti va yer usti suvlari. Materiklar va ayrim hududlar ichki suvlari;

– atmosfera, uning tuzilishi, tarkibi, havo massalari.

1. Ekvator bo'yicha atlantika okeannining kengligi 600 bo'lsa, yerning harakat tezigida uchayotgan kosmik kema uni necha soatda bir qirg'og'dan ikkinchi qirg'og'iga yetib boradi. Mazkur o'yinni yechish uchun o'quvchi quyidagilarni bilishi lozim. Yerning burchak tezligini, ekvatorda 10 yoyning uzunligini. Yerning burchak tezligi soatiga 150, ya'ni yer bir soatda 150 masofani bosib o'tadi.

Demak kosmik kema yer tezligida uchayotgan bo'lsa Atlantika okeannining kengligi 600 bo'lsa,



uni bir qirg'og'idan ikkinchi qirg'og'iga $600:15=4$ soatda yetib boradi.

Ekvator bo'y lab 10 yoyning uzunligi $111,0 \text{ km}^2$ teng, unda ekvator bo'yicha Atlantika okeanining kengligi $60 \times 111,1 \text{ km}^2 = 6666 \text{ km}$. Yoki bo'lmasa koordinata to'ri bo'yicha quyidagicha individual o'yinni ishlab chiqish mumkin: Sharqiy yarimsharning 1050 meridiani g'arbiy yarim sharning qaysi meridianiga to'g'ri keladi. Buning uchun o'quvchi quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim: har bir yarim sharning va yer sharining necha gradusga teng ekanligini. Shundan so'ng mazkur o'yin quyidagicha yechiladi: $1800 - 1050 = 750$ demak sharqiy yarim sharning 1050 meridiani g'arbiy yarim sharning 750 meridianiga to'g'ri kelar ekan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. Vahobov H., Zaynudinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. 1-qism Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 2000.
2. Metodika obucheniya geografii v sredney shkole. Pod. red. L.M.Pancheshnikovoy. -M.: Prosvesheniye, 1983.



GEOGRAFIYA DARSALARINI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI

Rahimova Bibimaryam Karimovna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani

XTB ga qarashli 31- son maktabning

geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lif sifatini oshirishda o'qituvchilar tomonidan yangicha g'oya va metodlarning dars jarayonida qo'llanishi, o'qituvchilarga dars jarayonini yangicha texnikalar va yangi ma'lumotlar asosida tashkil qilishda zarur tushunchalar berilgan. Shuningdek geografiya darslarini tashkil etish bosqichlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: geografiya, ta'lif, tarbiya, multimedia, darslik, AKT, interaktiv o'yinlar, bosqich, kadr.

Ta'lif va tarbiya masalasi barcha davrlarda eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi vazifalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yuqori malakali, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lif tizimining rivojiga bog'liq. Shu bois, vataniga, xalqiga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun umumiyo'rta ta'lif tizimida yetakchi o'quv fanlaridan hisoblangan geografiya fanining maqsadi, mazmuni va o'qitish usullarini takomillashtirish zarurati, shu soha mutaxassislari va mutasaddilari zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Ertamiz yoshlari bilimli, kasb-hunarli, ma'naviyatli, har tamonlama yetuk, intellektual salohiyatga ega yoshlar bo'lib ulg'ayishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Maktabgacha ta'lif, umumta'lif, oliy va o'rta maxsus ta'lif borasidagi o'zgarish va yangiliklar har bir pedagogi ruhlantirdi. Ta'lif sifatini oshirishda milliy va jahon tajribalaridan foydalanish ko'proq va kengroq natija berishini bugun zamonning o'zi isbotlab berdi. Dunyo miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda kuchli bilim bilan birga, mukammal tajriba ham talab etiladi. Har bir soha, fan bo'yicha yetuk kadrlarni tayyorlash orqali ta'lif sifatini yanada oshirish mumkin. Umumta'lif maktablarida tabiiy fanlarning o'qitilishida yangicha metodlar va usullardan foydalanish o'z samarasini bermoqda. Chunki, axborot texnologiyalari rivojlangan XXI asrda informatsiya soniyada qo'limizga yetib kelmoqda. Bugun yerning u burchagida yangi orol yoki davlat paydo bo'lganini bilish uchun yillar sanashning hojati yo'q. Texnologiyalar shu darajada rivojlanganki, hatto dunyo mo'jizalarini onlayn tarzda tomosha qila olamiz. O'sib kelayotgan yosh avlod esa bu o'zgarishlarni ikki karra tezroq qabul qiladi. Shunday ekan, darsni AKT va zamonaviy texnologiyalar, dunyoning eng so'nggi yangiliklari bilan boyitish orqali XXI asr yoshlarini qiziqtirish mumkin. Sababi, uzundan uzun ma'ruzalar-u, varaq to'ldirib takrorlashlar, zamonaviy qilib aytganda "moda"dan qoldi.

Geografiya faniga to'xtalsak, bu fan o'quvchilarni bиринчи galda xaritalar bilan ishlash, yer yuzi davlatlari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishlari, insoniyatning global muammolari bo'lgan ekologik muammolarga bo'lgan e'tiborni oshirish, tabiat in'omlaridan tejab-tergab foydalanishga o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilgan. Jak Iv Kusto aytganidek: "Biz yerni otabobolardan merosga olgan emasmiz, biz uni kelgusi avloddan qarzga organmiz." Darhaqiqat, biz juda ko'p deb o'yagan Orol ham tugab bormoqda, ba'zi boyliklarimizni esa topishni iloji yo'q. Ertaga bizdan qoladiganlarni kutayotganlar bizning avlodlarimiz. Yoshlarning bilim salohiyatini oshirishda darsliklarda har bir mavzu oxirida amaliy ishlar (yechim topilgan biron bir ishning namunasi bilan), testlar, yozuvsiz xaritalardan topshiriqlar, bilts savollar berilib borilsa, o'quvchining darsga bo'lgan qizig'ishi yanada ortadi. Albatta, fanni bolalarga tushunarli va aniq qilib yetkazishda yuqorida aytib o'tilganidek, har bir darsda yangi innovatsion metodlar (aqliy hujum, klaster, moychechak) yoki aqlni charxlovchi krosvord, chaynvordlardan, multimedia va video ko'rsatuvlardan imkon boricha ko'proq foydalanish kerak. Bu o'quvchida fikr rang-barangligini shakllantiradi. Mavzular orasida o'quvchilar bilishi zarur bo'lgan mavzu deb ekologiya mavzusini aytishimiz mumkin. Chunki inson toza havodan nafas olib, ruhan, ma'nan va jismonan sog'lom bo'lsa, hayotga nisbatan qiziqishi ortadi.

Geografiyada darslarni tashkil qilish jarayonini qiziqarli va o'quvchiga tushunarli qilib o'tkazishda quyidagi sxemani tanlash mumkin: davomat; dunyo xabarları; o'tilgan mavzuni mustahkamlash(metodlar orqali); yangi mavzu haqida qisqacha tushuncha; mavzu yuzasidan



yangi ma'lumotlar; yangi mavzbu bayoni; mavzuga doir videorolik va interaktiv o'yinlar; mavzuni mustahkamlash; guruhlarni baholash; baholash; uyga topshiriq berish.

O'quvchilarni noqulay vaziyatga qo'ymaslik uchun savollarni quyidagicha berish zarur:

1. Savolni avval butun sinfga berish.

2. O'quvchilarga savolni o'ylab olish uchun fursat berish.

3. Agar kimdir javob berish istagini bildirsa, uni rag'batlantirish, davom ettirish yoki qo'shimcha qilishni so'rash.

4. Agar yetarlicha vaqt o'tsada, sinf jim o'tirsa, o'quvchilarning sizga uzatayotgan noverbal belgilari (nigoh yo'nalishi, tananing oldinga engashishi)ga e'tibor berish va biror kishiga shaxsan murojaat qilish kerak.

5. Agar hech qanday belgilar sezilmasa, savolni sharhлаshingizga ehtiyoj bor – yo'qligini sinfdan so'rang.

6. Yaxshi savol berilgani uchun maqtashni oshirib yubormang.

Dars jarayonida asosan, o'quvchining shaxsiy fikriga ko'proq qulqoq tutish kerak. Chunki, mustaqil fikr bildirish orqali, u o'z tushunchalarini ifodalaydi.

Ustoz-shogird an'anasiiga amal qilgan holda qo'shimcha mashg'ulotlar orqali, o'tilganlarni mustahkamlab turish lozim.

Har bir pedagog o'zi ta'lif berayotgan o'quvchida jamiyatning ertangi kunini ko'radi. Bu degani jamiyatning ertangi hayotini ustozlar, pedagoglar belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Kenjabayev Axborot kommunikatsiya texnologiyalari.
2. Kompetensiyaviy yondashuvga bag'ishlangan ma'ruzalar to'plami.
3. Maktabda Geografiya jurnali.
4. www.uzedu.uz
5. www.tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ

**Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000